



KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA ANIMATSIYALARDAN FOYDALANISH

Umarova Muhayyo Turg'unboy qizi

Farg'ona davlat universiteti

Tayanch doktoranti

m.umarova@pf.fdu.uz

+998904066402

ANNOTATSIYA Kommunikativ kompetensiya tilni bilishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Talaba sifatida til maqsadlariga erishish uchun, masalan, global miqyosda integratsiya qilish uchun til kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish kerak. Kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish uchun o'qitish metodikasini amalga oshirish uchun bir qator usul va yondashuvlar taklif qilingan. Biroq, talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish uchun animatsion videolarni dublyaj qilish O'zbekistonda yangi yondashuv sifatida qaralmoqda. Animatsion dublyaj - bu innovatsion pedagogik yondashuvlardan biri bo'lib, u o'quvchilarga o'z ovozlari almashtirish orqali ona tilini his qilish imkoniyatini beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, animatsiya talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun haqiqiy til muhitini yaratishi mumkin.

Kalit so'zlar: vizual texnologiya, dublyaj animatsiyasi, lingvistik, diskursiv, sotsio-lingvistik, strategik model, kommunikativ kompetensiya, EFL talabalari

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНИМАЦИИ В РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

АННОТАЦИЯ Коммуникативная компетентность является основной целью достижения языковой компетентности. Как учащемуся, необходимо развивать языковую коммуникативную компетентность для достижения языковых целей, таких как глобальная интеграция. Было предложено несколько методов и подходов для внедрения в методику обучения для развития коммуникативной компетентности. Однако использование анимированных видеороликов дубляжа для развития коммуникативной компетентности учащихся рассматривается как новый подход в Узбекистане. Анимированное дубляж является одним из инновационных педагогических подходов, который может дать учащимся возможность почувствовать себя носителями языка, заменив их голоса. Исследование показало, что анимация может создать настоящую языковую атмосферу для развития коммуникативной компетентности учащихся.

Ключевые слова: Визуальные технологии, дубляжная анимация, лингвистическая модель, модель дискурса, социокультурная модель, стратегические модели, коммуникативная компетентность, студенты EFL.

THE USE OF ANIMATION IN DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE

ANNOTATION Communicative competence is the main purpose of achieving language proficiency. As a learner, one needs to develop language communicative competence in order to reaching language aims, such as integrating globally. A number of methods and approaches have been suggested to implement in teaching methodology to develop communicative competence. However, using animated dubbing videos to develop students` communicative competence is considered as a new approach in Uzbekistan. Animated dubbing is one of the innovative pedagogical approaches, which can give opportunities for students to feel native speakers by substituting their voices. The study has suggested that animation can create a real language atmosphere for developing students` communicative competence.

Keywords: Visual technology, dubbing animation, linguistic model, discourse model, socio-cultural model, strategic models, communicative competence, EFL students.

KIRISH Globallashuv va texnologiyalar rivojlangan bir paytda, xalqaro til o‘rganish millatidan qat’iy nazar muhim vositalardan biri bo‘lib kelmoqda. Ingliz tili ham insonlar o‘rganishi kerak bo‘lgan ana shunday dunyo tillari qatorining oldingi o‘rinlaridan joy olmoqda. Shu xususda, O‘zbekiston ta’lim tizimining barcha jabhalarida ingliz tilini o‘rganish targ‘ib qilinmoqda. Shunga qaramay, tilning barcha ko‘nikma turlarini mos va samarali o‘zlashtirish o‘rganuvchilar uchun har doim qiyinchilik tug‘dirib kelgan. Til sohiblari bilan erkin va samimiy muloqotga kirishish til o‘rganuvchilardan ulkan mashaqqat va tajriba talab qiladi.

Ikkinchi tilda barcha til ko‘nikmalarini integrallashtirgan holda, kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish til bilish darajasining asosi hisoblanadi. Tildagi kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish xalqaro darajada o‘qish va ishlashni maqsad qilgan har bir til o‘rganuvchisi uchun zarurdir. Kommunikativ kompetensiya atamasi ko‘pgina tilshunos va uslubshunoslar tomonidan turlicha ta’riflangan. Aslida esa, ikkinchi til o‘zlashtirishda kommunikativ kompetensiya atamasi ikkinchi til o‘rganilayotgan jamiyatda o‘sha tilning ijtimoiy-madaniy meyorlariga amal qilgan holda tildan foydalanish demakdir. Shu xususda, til lingvistik hamda ijtimoiy-madaniy jihatdan farq qiluvchi mahalliy ingliz tilida so‘zlashuvchilarning normalariga asoslangan kommunikativ til o‘qitish metodining asosidir.

Shuning uchun, til o‘rganish faqatgina tildagi grammatik qoidalarni o‘rganish emas, balki tilning turli xil standartlarini amaliy muloqotda qo‘llay olish san’atidir. Muloqot paytida munosib til me’yorlarini tanlash va ularni mos o‘rinlarda qo‘llash muvaffaqiyatli muloqotning negizi hisoblanadi. Shuning uchun, ko‘p til o‘rganuvchilar ikkinchi til o‘zlashtirishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda qiyinchililarga duch keladi. Til o‘rganuvchilar

uchun kommunikativ kompetensiya bu faqat gapirish ko‘nikmasini o‘zlashtirishdek tuyiladi, aslida esa barcha til ko‘nikmalarini egallash va ulardan oqilona foydalana olish qobiliyatidir. Bu haqiqatdan ham murakkab jarayondir.

O‘rganish jarayonini osonlashtirish maqsadida ingliz tili o‘qitishda bir qancha strategiyalar qo‘llanilib kelinmoqda. Til kompetensiyasini rivojlantirishning shu kabi samarali usullaridan biri zamonaviy texnologiyalar, xususan media orqali amalga oshiriladi. Media til o‘rganuvchilarni ham vizual ham audio materiallar bilan ta‘minlay oladigan samarali vosita hisoblanadi. Media yordamida talabalar haqiqiy til muhitini his qila oladilar va o‘zlari ham shu jarayonni bir bo‘lagi sifatida ishtirok etadilar. Shu sababdan, medianing maqsadi o‘rganish va muloqotni yuksaltirishdan iborat. Ana shunday media vositalaridan biri animatsiyalardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Animatsiya so‘zi lotincha “anima” so‘zidan olingan bo‘lib, ruh, qalb, hayot degan ma’nolarni anglatadi. Animatsiya rasm yoki tasvirni jonlantirishga xizmat qiladigan bir qancha tasvirlar ketma-ketligini yozib olish va namoyish etishdir. Animatsiya video ko‘rinishida jonlanadi va o‘zida tasvirlarning vizual hamda audio namoyishlarini aks ettiradi, bu xususda, bu til ta‘limida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan eng yaxshu loyihalardan biri sifatida ko‘rinadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, o‘rganish jarayonida animatsiyalardan foydalanish jarayonda zavqli muhit yaratishga hisbat qilgani bois, oddiy usulda o‘rgangandan ko‘ra ancha samarali hisoblanadi. Bu xususiyati bilan animatsiyalar talabalarning o‘rganilishi zarur bo‘lgan materialga nisbatan qiziqishlarini ortishiga sabab bo‘ladi. Natijada talabalar o‘zlarining tahliliy va tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirgan holda dars materiallariga o‘z baholarini bera oladilar.

Tadqiqotchi Uang til o‘rganishda animatsiyalardan foydalanish dars jarayoning rang-barang, jo‘shqin qilishi bilan birga, talabalarning lug‘at boyligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, lug‘at o‘rganish biror bir tildagi yangi so‘zlarni shunchaki o‘rganish emas, balki o‘rganilayotgan tilda ushbu so‘zlarning qanday yozilishi hamda talaffuz qilinishiga oid bilimlarga ega bo‘lish hamdir. Shuning uchun, talabalar animatsiyalar yordamida yangi so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzi va imlosiga oid afzalliklarga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, animatsiya videolar yangi so‘z boyligiga ega bo‘lishda yuz ifodalari va tana tili orqali mazmun aks ettirishga yordam beradi. Talabalar ushbu holatda animatsiyalardagi mahalliy so‘zlashuvchilarni kuzatish orqali ikkinchi tildagi matn mazmunini qanday talaffuz qilish va tasvirlashni o‘rganadilar va bu esa ularga ingliz til talaffuzini o‘rganishda yaxshi samara beradi. Bu esa talabalarda autentik til muhitini yaratishga xizmat qilib, to‘g‘ri talaffuzni doimiy eshitish orqali muloqot davomida yangi so‘zlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilishga ko‘nikma hosil qiladi. Amaliyotda ular bu orqali tinglash va gapirish ko‘nikmasini ham rivojlantirib boradilar. Indoneziya talabalaridan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, bu kabi media turlari talabalarning gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga to‘siq bo‘ladigan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Bu tadqiqot ishida esa ana shunda animatsiya videolari ingliz tilida talabalarning muloqot ko‘nikmasini rivojlantiruvchi vosita sifatida tanlab olingan. Tadqiqot natijasida talabalarning gapirish ko‘nikmasini

rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan talabalarning lug‘at boyligini oshirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini yuksaltirish samaradorligi aniqlangan.

Bundan tashqari, ikkinchi tilda ravon so‘zlash yaxshi tinglay olish natijasida sodir bo‘ladi. Yuqori darajada muloqot kompetensiyasini rivojlantirish talabalardan lug‘at boyligini oshirish va tinglash tushunish qobiliyatini talab qiladi. Shuni hisobga olib, animatsiyalardan til o‘rganishda foydalanish ikkinchi tildagi tabiiy muloqotni tinglash imkoniyatini beradi. Bu orqali talabalar talaffuzdagi xato va kamchiliklarni anglab, tabiiy til muhitini his qila oladilar.

O‘tkazilgan tadqiqotlardan biri shuni ko‘rsatadiki, animatsiya videolardan foydalanish har qanday matnni o‘zlashtirishda talabalarning o‘qib tushunish savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Ya’ni, o‘qib o‘rganish ko‘nikmasi bu ko‘zlar vamiya birgalikda harakat qilishi zarur bo‘lgan mashqlar sirasiga kiradi. Bu kabi o‘zlashtirishda matnning o‘zi yetarli bo‘lmagan holda, animatsiyalar noverbal vositalar va vizualizatsiya orqali umumiy ma’no va kayfiyatni yetkazib bera olishi tasdiqlangan. Tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki, animatsion videolar ma’lumotlarni anglab, shu bilan birga his qilib o‘rganish muhitini eslab qolish uchun turli xil hikoyalar yaratadi. Tadqiqotchi Sappening xulosasiga ko‘ra, animatsion videolar autetik materiallardir, ya’ni talabalar uchun o‘rganish jarayonining real obyektlaridan zavqlanish hissini bera oladi. Yana shuni qo‘shimcha qilish kerakki, animatsiyalardan foydalanishning turli xil texnikalari ikkinchi til o‘zlashtirishda o‘z samarasini ko‘rsatib kelmoqda. Ular quyidagilar:

1. *Faol ko‘rish (active viewing)*

Bu texnikada o‘qituvchi talabalarga animatsion videoni boshidan oxirigicha tomosha qilishga imkon beradi. Bu faoliyat orqali o‘qituvchi namoyish etilgan videoni talabalar qanchalik darajada tushunib o‘zlashtirganliklarini tekshira oladi.

2. *Muzlatib qo‘yish va bashorat qilish (freeze-framing and prediction)*

Bu animatsion texnika turida, video namoyish qilinayotgan paytda ya’ni biron bir qahramon, tana tili, yuz ifodalari, hissiyot va reaksiyalar ko‘rsatilayotgan paytda o‘qituvchi tomonidan to‘xtatib qo‘yiladi. Bu harakat orqali talabalarga ingliz tilida biror bir ma’lumotni yetkazishda qanday ifodalardan foydalanish zarurligini tushunishga yordam beradi.

3. *Ovozsiz ko‘rish (silent way)*

Video talabalarga ovozsiz holatda namoyish etiladi va talabalar qahramonlar nima haqida suhbatlashayotganliklarini taxmin qiladilar. Bu orqali videodagi dialoglarni eslab qolishlari kerak.

4. *Ovozli lekin ko‘rinmas (sound on and vision off activity)*

Bu namoyish turida, talabalar faqatgina dialoglarni eshita oladilar, harakatlarini ko‘ra olmaydilar. Bu ularda tinglash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

5. *Takrorlash va rol o‘ynash (repetition and role play)*

Bu jarayonda videodagi biror bir sahna bir necha pauzalar bilan qayta-qayta namoyish etiladi. Talabalar namoyishni tushunganlaridan eslab qolganlarini o‘ynab berishlari kerak bo‘ladi.

6. Qayta yaratish faoliyati (reproduction activity)

Bu holatda videoning ma’lum qismi ko‘rsatiladi va nima sodir bo‘lganligini talabalar qayta so‘zlab berishlari talab qilinadi. Bu esa ularda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

7. Kuzatish usuli (follow-up activity)

Bu texika turida, o‘qituvchi talabalarning video haqida tushunganliklarini tekshirish maqsadida videoning mazmuni haqida muhokama olib boradi.

8. Dublyaj usuli (dubbing activity)

Bu faoliyat turida, video ovozsiz namoyish etilayotgan paytda talabalardan og‘zaki usulda qoldirilgan dialoglarni to‘ldirish talab etiladi.

Animatsiya dublyaj usuli ana shunday samarali texnikalardan biridir. Dubbing usuli o‘zbek tiliga dublyaj sifatida tarjima qilinadi. Bu so‘zning Oxford lug‘atidagi izohiga e’tibor qaratigan bo‘lsak, film yoki videoning asl nusxasidan boshqa tildagi sountreki bilan ta’minlashdir. Dublyaj namoyishda ma’lum bir qahramonlarni ovozlarni to‘ldirish maqsadida boshqa odamlarning ovozlarni yozib olish jarayoni sifatida izohlanadi.

Dublyaj animatsiyasi ingliz tilidagi muloqotni oson usulda tomoshabinlarga moslashtirib berishga yordam beradi. Misol uchun, ovozsiz taqdim etilgan animatsiya videolar o‘rganuvchilardan munosib ovoz berishni talab qiladi. Videoning mazmuniga asoslanib, ular dialog yaratish maqsadida o‘z ijodkorlik ustida ishlaydilar. Bundan tashqari, talabalar ovozsiz videoga mos suhbat yaratish davomida o‘rganilayotgan tilda gapirib, o‘zlarini haqiqiy aktyorlardek his qiladilar. Dublyaj animatsiyasi yordamida talabalar o‘zlarining xatolarini anglagan holda, o‘z nutqlaridagi kamchiliklarini bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada, ikkinchi tildagi nutqlarini tajriba qilish jarayonida o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradi, bu esa ularga erkin muloqot paytida yordam beradi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha tadqiqot ishlarida animatsiyalar talabalarning til bilish darajasini rivojlantirib, ular uchun haqiqiy til muhitini yarata olishi isbotlangan. Xususan, animatsiyalar talabalarda o‘qib va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirib, yozish va gapirish ko‘nikmalari uchun ijodiy va tanqidiy fikrlash g‘oyalari bilan boyitishga xizmat qiladigan vositalar sirasiga kirishi tasdiqlangan. Animatsiya videolar yordamida til o‘qituvchilari imlo va talaffuz qoidalari bilan yangi so‘zlarni kreativ usulda yod olishlariga yo‘l ochadilar, bu esa ularga kelajakda hech qanday qiyinchiliklarsiz aniq va ravon suhbat qura olishlariga zamin yaratadi. Animatsiyalarni ko‘rib ma’lumot o‘zlashtirayotgan har qanday talaba video mazmunini taxmin qilgan holda xabarlarni ijodiy va faol tarzda eslab qoladilar. Videodagi turli xil imo-ishoralar yordamida talabalar o‘zlarining tahlil qilish qobiliyatlaridan foydalanib, videoga nisbatan o‘z xulosalarini beradilar. Bu esa animatsiyalarning talabalarda tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ikkinchi til o‘zlashtirish jarayonida, animatsiyali dublyaj usulidan foydalanish yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan biri hisoblanadi. Bu esa talabalarga mahalliy shu tilda so‘zlashuvchilarning ovozlari o‘rinlashtirgan holda, haqiqiy til muhitini his qilishga imkon beradi. Animatsiya dublyaj usuli talabalardan bor mahorat va qobiliyatlarini ko‘rsatishni talab qilgani sababli, ijodkorlik va o‘ziga ishonch kabi ijobiy natijalar o‘z-o‘zidan kelishi mumkin. Animatsiya ana shunday tilning barcha ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usuli sifatida tan olingan. Olib borilgan tadqiqot ishida animatsiyalarning dublyaj usulidan foydalanish orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, xususan ularda tilning lingvistik va sotsiolingvistik aspektlarini yuksaltirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Talabalarning ingliz tilidagi bilimlarini hamda muloqot qobiliyatini tekshirib olish uchun o‘qish va tinglash ko‘nikmasidan test, yozish ko‘nikmasidan ijodiy yozma ish, gapirish ko‘nikmasidan suhbat shaklidagi sinovlar o‘tkazildi. Sinov natijalari o‘qish va tinglash ko‘nikmasidan natijalar yaxshi darajada bo‘lishiga qaramay, ijodiy fikrlashga undovchi gapirish va yozish ko‘nikmasi, shu bilan birga lug‘at boyligi yetishmasligi talabalarda ko‘p hollarda muloqot qiyinchiliklari tug‘dirishini ko‘rsatdi. Bu esa, talabalarda muloqot paytida erkin fikrlash, masalaga ijodiy yondashish hamda muammolarni yechish ko‘nikmasini shakllantirishlari uchun ularga kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda vizual vosita va texnologiyalardan foydalangan holda tajriba-sinov ishlarini olib borishni yan bir bor tadbiq etdi.

Innovatsion texnologiyalardan biri hisoblangan **“Dubbing” animatsiyasi** esa, kommunikativ kompetensiyaning asosi hisoblangan ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qildi. Sababi, ovozsiz holatda namoyish etilgan video yoki qisqa film talabalarda og‘zaki muloqotni rivojlantirish uchun bir qancha g‘oyalar bilan birga talabalarning mavzuga oid ijodiy yondashishlariga ham sabab bo‘ldi. Tajriba-sinov bosqichini boshlashdan avval nazorat va tajriba guruhlarida test sinovlari o‘tkazildi. Ingliz tilining to‘rt (O‘qish, yozish, gapirish, tinglash) ko‘nikmasiga oid savollarni o‘z ichiga olgan testdan ko‘zlangan maqsad talabalarning til kommunikativ kompetensiyasini qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat edi. Test talabalarga CEFR (Common European Framework of Reference) talabiga asoslangan milliy baholash tizimi ko‘rinishida berildi. Test ingliz tilida bo‘lishi talabalar ingliz tilining ham og‘zaki ham yozma muloqot qobiliyatlarini rivojlanganligi darajasini ko‘rsatdi.

Tajriba-sinov avvalidagi natijalarga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o‘quvchilarning nazorat guruhidagi o‘quvchilarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar orasidagi farqlar sezilarli emasligi aniqlandi. Bu holatni ob‘ektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi.

XULOSA

Ommaviy axborot vositalari orqali o‘rganish barcha sohalarida mashhur bo‘lib bormoqda, chunki talabalar zamonaviy jamiyatda texnologik qurilmalar bilan shug‘ullanadilar. Ingliz tilini o‘rgatishda animatsion videolarni dublyaj qilish innovatsion yondashuv bo‘lib, bo‘lajak EFL o‘qituvchilari va til bo‘yicha mutaxassislarni ta‘limga yangicha nuqtai nazarni olib keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'rgazmali qurollar, ayniqsa animatsion videolarni dublyaj qilish ijodkorlik va muammoni hal qilish ko'nikmalariga munosabatda o'quv jarayonining samaradorligi va jozibadorligini oshiradi. Animatsion dublyaj videolari tilning barcha jihatlarini, shu jumladan tashkiliy, ijtimoiy va madaniy jihatlarni birlashtirish uchun eng maqbul o'rganish vositasi bo'lishi mumkinligi tasdiqlangan. Tadqiqot o'quvchilarning bo'lajak mutaxassislarni tarbiyalashda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun ko'rgazmali qurollar orqali o'qitish muhimligini ko'rsatdi. Biroq, talabalar orasida ushbu usulni qo'llash uchun raqamli savodxonlikning past darajasini hisobga olish kerak. Raqobat va hamkorlik dunyosida yaxshi muloqot qobiliyatiga ega bo'lish o'z jamiyatida yuqori natijalarga erishmoqchi bo'lgan har bir til o'rganuvchi uchun shartdir. Ko'rgazmali qurollar, ya'ni animatsion videolarni dublyaj qilish muvaffaqiyatli muloqotga yordam beradi deb taxmin qilinadi. Animatsiya yordamida to'rtta ko'nikmani birlashtirish real tilga e'tiborni qaratdi va o'quvchilarning ingliz tilidagi kommunikativ malakasini rivojlantirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abdelouahab Senhaji. on "Communicative Competence Revisited", in Hymes, D. (1974). Foundations of sociolinguistics: An ethnographic approach. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2007.
2. Abdu-Raheem, B. O. Effects of instructional materials on secondary schools students' academic achievement in Social studies in Ekiti state, Nigeria. World Journal of Education, 6(1), 2016.-p 32-39.
3. Boy Santuri. Development Animated Dubbing Video as Learning Media in English Speaking at Senior High School. Journal Of Development Research, 6 (1), May 2022, Pages 76-83 DOI: <https://doi.org/10.28926/jdr.v6i1.167>
4. Hymes, D. "Competence and Performance in Linguistic Theory". In R.Huxley and E. Ingram (eds.) Language Acquisition: Models and Methods. London: Academic Press. 1971.
5. Koumi, J. Designing video and multimedia for open and flexible learning. United Kingdom: Routledge. 2006.
6. Nunan, David. « Communicative Tasks and the Language Curriculum» . TESOL Quarterly. 25 (2): 1991. –p 279–295.
7. Olii, K., & Nurwati, A. Teacher strategy in using animated videos in learning English . Journal of English Teaching and Linguistic Issues (JETLI), 1(3), 2022. -p 104–113. <https://doi.org/10.58194/jetli.v1i3.88>
8. Satriani Sappe. The Use Of Animation Video To Improve The Students Speaking Skill. Unpublish. Makassar Muhammadiyah University. Makasar. 2020.
9. Savignon, S. J. Communicative competence: Theory and classroom practice. Reading, MA: Addison-Wesley; 1983.
10. Umarova, M. (2023). INGLIZ TILI DARSLARIDA VISUAL VOSITALARNING AHAMIYATI VA QO 'LLANILISHI. Interpretation and researches, 1(15).
11. Umarova, M. (2023). INGLIZ TILI YO'NALISHI TALABALARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Involta Scientific Journal, 2(2), 97-102.